

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**3 май — Жаҳон матбуот эркинлиги
кунига бағишланган махсус сон**

Хива-2021

МУНДАРИЖА АРХИТЕКТУРА ФАНЛАРИ

Шнекеев Ж.К. Буюк ипак йули ва ер ости йулакчаси	5
---	---

БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Самандаров Э.И., Машарипов И.Г., Пирова М.Қ., Назарова Г.Б. Вешенка кўзқоринини уй шароитида етиштириш	8
---	---

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ

Bozorov M.M., Fayziev Sh.Sh., Bozorov M.M. Determining the absolute height of the ground using the global mapper program and creating the relief of eroded lands on the basis of an automated system	11
---	----

ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Djumanova A.B., Artikova R.A. “Yo’lovchi vagonlarni ta’irlash zavodi” AJ moddiy resurslardan foydalanish samaradorligiga oshirish yo’llari	16
Бабаханова Н.У., Султанова С.М. Особенности статистического анализа грузоперевозок АО «Ўзбекистон темир йўллари»	19
Султанова С.М., Нурматова И.А. Темир йўл транспорти саноат корхонасининг солиқ юки таҳлили	23
Хамдамов Б.К., Бабаханова Н.У., Эргашев Ш.В. Стандартизация бухгалтерского учета на основе мсфо в ходе реформирование транспортной системы в Республики Узбекистан	25

ТАРИХ ФАНЛАРИ

Ahmadov A.A. Buxoro va Afg’oniston munosabatlari tarixi	30
Абдуллажанова Н.Т. Шарқшунос олим У.Каримовнинг берунийшуносликка кўшган ҳиссаси хусусида	34
Йўлдошев А.Б. Тожикистонда ўзбеклар сони ва уларнинг тарқалиши тарихидан	38
Тошпўлатов Б. Самарқанд давлат тиббиёт институти тарихига назар	40
Умарова Р.Ш. Беруний фалсафий қарашларининг назарий-ғоявий манбалари	43
Ҳайтов Х.А. Хўжа Насриддин Афанди халқ қаҳрамони сифатида	45

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abduraxmonova H. Political communication in the context of media digitalization	49
Alibekova R.X. Rus tili darslarida interaktiv usullardan foydalanish	51
Allanazarova S.X. Atoqli otlar onomastikasining ilmiy va amaliy jihatlar	53
Almardanova Z.Ch. The using media technology in the teaching foreign language as communicative language learning	54
Amanlikova N.R. The use of innovative technologies in language learning	56
Babakulova L.R. Gidrotexnika terminlari haqida tushuncha	58
Burxanova G.M. Agrar universitetida kompetensiyani rivojlantirish sifatida rus tilini o’rganishning faoliyati va kommunikativ jihatlar	60
Ganixanova M.B. The using media materials in the teaching foreign language	62
Gaybullayeva Kh.M. Interaction of contrasting linguistics and translation theory	64
Isanova F.T. Objectives and principles of learning english language as a second foreign language in an agrarian university	66
Khaitova D. Basic theoretical and methodical aspects of teaching English language	67
Khujanova M.I., Yuldashev Sh.B. Features of teaching english language and literature	70
Mamedova N.Z. Universitetlarda rus tili darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	72
Meyliyeva G. Distance learning – type of the modern education in Uzbekistan	73
Mirkasimova M.B. Innovative technologies for training foreign language in the high education	75
Mirzakulov I.N. Formation of professional competence of students of technical university	78
Muxitdinova D.X. Agrar universiteti talabalari uchun rus tili darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish tizimi	80
Narmurodova G. Verbalization of condolences in Uzbek and English lingvoculture	81
Nurmatova G.T. Developments in english for specific purposes: a multi-disciplinary approach	84
Saidova Z.U. Optimal methods of teaching English grammar	86
Saydikramova U.X. Methods of active learning in English lessons	88
Suyarova Sh.T. Pedagogical conditions for the development of a student's concept when learning a foreign language at an agrarian university	90
Umarova L.N. Interactive technologies in the teaching foreign language	92
Valieva H.S. Organization of independent work of students in the study of foreign language	94
Xamrayeva N.X. Modern pedagogical technologies in the teaching foreign language	96

Xodjayeva D.I., Xusenova M.O. Fonetikaning o`rganish sohasi va uning turlari	98
Yavminova N.M., Qurbonova G.Yu. Innovative approach to learn English language	102
Yokubova Sh.Yu. Obyektli birikmalar poetik nutq vositasi sifatida	104
Yusupova N.N. Transformation of the acquired knowledge of a foreign language in the process of globalization	106
Алленова И.В. Внедрение инноваций в систему высшего образования Узбекистана	108
Ачилов М.Н. Ибора ва бирликларнинг таҳлилида этнографиянинг роли	110
Базарова У.М. Олий ўқув юрти талабаларининг инглиз тили дарсларида маънавий – эстетик тарбиялашнинг диагностикаси	114
Бобожонов Б. Формирование культуры речи у студентов высших учебных заведений через преподавание немецкого языка	116
Ганиева Г.З. Инглиз тили топонимик луғати таҳлили	118
Джаббаров Ш.Х. Концепт лингвокультурологик категория сифатида	122
Каримова Ж.Ш. Синонимические отношения между фразеологическими единицами с компонентами – названий флоры	124
Киличева Ф.Б. Эвфемизмы в современном русском языке	127
Кузибаева Р.Ш. Использование современных педагогических технологий на уроках русского языка	128
Кузибаева Р.Ш. Роль русского языка в формировании мировоззрения студентов высших учебных заведений	130
Мадаминова Н.Р. Основные вехи развития композитообразования	132
Рўзиева Д.С. Интеллектуал роман генези специфик таснифи	135
Рузиева Н.Х. Инглиз тилида хушмуомалалик категориясининг социолингвистик таҳлили-хушмуомалалик, мавқе ва контекст	139
Сафармахматова З.Н. Паремиилогик бирликлар тушунчаси ва унинг таркибий-типологики хусусиятлари	142
Ташева У.Т. Методы совершенствования преподавания русского языка в высших учебных заведениях	146
Турманов Т.М. Грамматические навыки и методы формирования навыков во французском языке	148
Хакимджанова М.Э. Использование мотивационных возможностей игровых технологий при изучении русского языка	150
Хакимджанова М.Э. Классификация единиц речевого этикета изучаемого языка в учебных целях	152
Шевцова О.В. Аспекты изучения категории количества	154
ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
Каримбоева С. Организация самостоятельной работы студентов при изучении высшего образования	158
Мирзаева М.Н. Техника олийгоҳи талабаларининг касбий компетентлигини ривожлантириш бўлажак мухандислар касбий шахсини шакллантириш	160

FONETIKANING O'RGANISH SOHASI VA UNING TURLARI

D.I. Xodjayeva, PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

M.O. Xusenova, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada fonetik atamalarni lingvistik, leksikografik tahlil qilishda terminologiyaning o'рни va chet tilini o'rganishda atamalarni tahlil qilishning ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Fonetika, Orfoepiya, Orfografiya, Fonologiya, singarmonizm, akustik, umumiy fonetika Qiyosiy fonetika, Xususiy fonetika, Tarixiy fonetika, Eksperimental fonetika, Tavsifiy fonetika.

Аннотация. В статье обсуждается роль терминологии в лингвистическом, лексикографическом анализе фонетических терминов и важность анализа терминов при изучении иностранного языка.

Ключевые слова: фонетика, ортоэпия, орфография, фонология, сингармонизм, акустика, общая фонетика, сравнительная фонетика, частная фонетика, историческая фонетика, экспериментальная фонетика, описательная фонетика.

Abstract. This article discusses the role of terminology in the linguistic, lexicographic analysis of phonetic terms and the importance of the analysis of terms in the study of a foreign language.

Keywords: Phonetics, Orthoepy, Spelling, Phonology, Synharmonism, Acoustics, General Phonetics Comparative Phonetics, Private Phonetics, Historical Phonetics, Experimental Phonetics, Descriptive Phonetics.

Fonetika tovushlarning eshitishtilish tomonini o'rganishda akustikaga, talaffuz qilinishi, aytilishi, hosil qilinish tomonlarini o'rganishda fiziologiyaga tayanib ish ko'radi. Bundan tashqari, u adabiyotshunoslik (hijolar, o'leohov metrika va ta'sirli o'qish kabi) va ijtimoiy fanlar bilan doimiy aloqada bo'ladi. Nutq tovushlarini turli tomondan o'rganish mumkin: tarixiy nuqtai nazardan, qiyosiy tomondan, hozirgi o'zbek tili va mahalliy dialektlarning nutq tovushlarini taqqoslash jihatidan, nutq tovushlarini turli asboblarda yordamida eksperiment qilish yo'li bilan va boshqalar. Shunga ko'ra, fonetika nazariy planda umumiy fonetika va xususiy fonetikaga, amaliy planda esa tarixiy fonetika, qiyosiy fonetika, tavsifiy fonetika, eksperimental fonetika kabi bir necha sohaga bo'linadi [1].

Umumiy fonetika turli tipdagi tillarning nutq tovushlarining xilma-xilligini o'rganuvchi bo'lim. U turli sistemalar tillarida inson nutq apparatining tovush hosil qilish imkoniyatlarini, nutq organlari yordamida tovushlarni hosil qilish usullari va ulardan nutqda foydalanish imkoniyatlarini o'rganish kabi masalalar bilan shug'ullanadi. U alohida va qarindosh tillarning fonetik sistemasini batafsil va chuqur o'rganish hamda natijalarni umimlashtirish asosida hosil qilinadi. Demak, tillarning fonetik xususiyatlari qanchalik chuqur va izchil o'rganilsa, umumiy fonetika uchun manba shunchalik boy bo'ladi.

Xususiy fonetika muayyan bir tilning fonetik bazasini, fonetik qonuniyatlarini umumiy fonetika qonuniyatlariga bo'ysunadi va uning qonuniyatlari asosida faoliyat olib boradi. Xususiy fonetika muayyan bir tilning amaliy fonetikasi hisoblanadi. U turli farazlar, gipotezalar, postulatlaridan xoli bo'ladi. Muayyan tilning artikulyatsion bazasi, uning artikulyatsion imkoniyati, akustik refrezentatsion usuli asosida ish ko'radi. Mazkur tilning fonetik ifoda bazasi bilan bog'liq barcha jarayonlar xususiy fonetikada o'rganiladi.

Tarixiy fonetika ma'lum bir tilning tovush sistemasini tarixiy rivojlanishda o'rganadi, ya'ni til taraqqiyotining turli davrlarida tovush sistemasidagi tarixiy o'zgarishlarni, ularning o'zgarish sabablarini tekshiradi. Jonli so'zlashuv nutqi, qarindosh tillar tadqiqi natijasida olingan natijalar, til taraqqiyotining turli davrlariga mansub yozma yodgorliklar tarixiy fonetika uchun manba bo'ladi.

Tovushlarning tadrijiy taraqqiyoti shu tilda gaplashuvchi xalqning tarixi bilan bog'liq ravishda o'rganiladi, tarixiy sabablari aniqlanadi. Masalan, o'zbek tilida hozir v fonemasining ikkita – lab-lab, lab-tish varianti bor. Tarixiy fonetika v fonemasidagi shu belgilarning

kelib chiqish sabablarini quyidagicha izohlaydi: lab-lab variant (v)o'zbek tili uchun birlamchi va qadimiy fonema hisoblanadi. Sof o'zbekcha va asl turkcha so'zlarda bu tovushning lab-lab varianti ishlatiladi. Masalan, *ov, suv, yayov, qovun, haydov, yaylov* kabi. O'zbek tilining keyingi paytda boshqa tillar bilan munosabati kuchayishi natijasida bu fonemaning lab-tish varianti yuzaga keladi. Bu variant boshqa tillardan, xususan, arab, *fors* va rus tillaridan o'zlashgan *va'da, vido, vint, vagon, vaqt, viloyat* kabi so'zlarda uchraydi. Turli davrlarda yaratilgan yozma yodgorliklar, turli grupp va shevalarga xos bo'lgan og'zaki nutq materiallari tarixiy fonetika uchun asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Tarixiy fonetika umumiy fonetikaga, qiyosiy fonetikaga va hozirgi tilning fonetikasiga oid materiallardan ham foydalaniladi [2,3].

Qiyosiy fonetika qarindosh tillarning tovush sistemasi munosabatlarini o'rganadi. Masalan, turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi, slavyan tillarining qiyosiy fonetikasi kabi. Bunda bir qancha qarindosh tillarning yoki bir qancha dialekt va shevalarning materiallari – unli va undoshlar, fonetik o'zgarishlar va shu kabilar birbiriga qiyoslash asosida o'rganiladi. Masalan, singarmonizm qonuni hozirgi o'zbek adabiy tilida buzilgan, lekin boshqa turkiy tillarda, shuningdek, ayrim o'zbek dialektlarida to'la saqlangan. Bu materialni qiyosiy o'rganish asosida avval o'zbek adabiy tilida ham singarmonizm hodisasining to'la ravishda bo'lganligi to'g'risidagi xulosaga kelish mumkin.

Qiyosiy fonetika bir tomondan, bir oilaga mansub ikki tilning qiyosiy fonetikasini (masalan, rus va nemis tillari qiyosiy fonetikasi), ikkinchi tomondan, ikki oilaga mansub ikki tilning qiyosiy fonetikasini (masalan, o'zbek va rus tillari qiyosiy fonetikasi) o'rganishi mumkin. Qiyosiy fonetika bir tomondan, umumiy va tavsifiy fonetika materiallariga, ikkinchi tomondan, tarixiy fonetika materiallariga asoslanadi. Qiyosiy fonetika yozuv yodgorliklari va sheva materiallaridan ham unumli foydalanadi [4].

Tavsifiy fonetika yoki fonologiya ma'lum bir til taraqqiyotining ma'lum bir davri oralig'idagi tovush sistemasini o'rganish bilan shug'ullanadi. Ilmiy-tavsifiy fonetika tovushlar dinamikasi bilan ham shug'ullanadi, u tilning fonetik sistemasini hosil qilishda til tarixini chetlab o'tmaydi. Tavsifiy fonetika tovushlarni quyidagi aspektlarda o'rganadi:

-fiziologik (nutq tovushlarining nutq organlari yordamida hosil bo'lishi – tovushlar fiziologiyasi);

-akustik (o'z sifatlari bilan eshitish taassurotlariga ta'sir etish – nutq tovushlarining akustikasi);

-lingvistik (so'zlarning semantik differentsiatsiyasida tovushlarning o'rni).

Aloqa vositasi sifatida uchinchi aspekt asosiy hisoblanib, fonetikani lingvistika tarkibiga qo'shadi. Tovushlarning kombinator, pozitsion variantlari va ularning o'zgarishlari ham shu sohaning asosiy o'rganish obektlaridandir.

Eksperimental fonetika nutq tovushlarining fiziologik va akustik xususiyatlarini turli xil asbob-uskunalar yordamida o'rganadi. Tekshirishning ushbu usuli nutq tovushlarining alohida belgi-xususiyatlarini aniq belgilashga imkoniyat yaratadi. Masalan, bu usul vositasida unli tovushlarning cho'ziqlik yoki qisqalik, undoshlardagi portlash yoki sirg'alish hodisasini juda aniq belgilashga, nutq tovushlarining tasnifiga asos bo'ladi. Fonetika bahsining bunday tarmoqlanishi nutq tovushlarini hozirgi o'zbek tili me'yorlari nuqtai nazaridan tasvirlash, tarixiy ekskursiya niyatida ayrim nutq tovushlarining taraqqiyot protsessiga ham nazar tashlash, adabiy talaffuzning shakllanishi va takomilini ko'rsatish maqsadida adabiy til fonemalarini o'rni bilan markaziy yetakchi shevalarning nutq tovushlariga yo'l-yo'lakay qiyoslab o'tishni taqozo etadi. Fonetikaning mustaqil bo'lgan bu bo'limlari o'zaro mustahkam bog'langan. Ular bir-birining materiallariga tayanib ish ko'radi [5].

Fonetikada tilshunoslikning boshqa fan sohalari, adabiyotshunoslik, fiziologiya, fizika, psixologiya kabi fanlar bilan aloqasi yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Bu fanlardan farqli o'laroq, fonetika tovushlarga so'z, qo'shimcha va gaplarga moddiy qiyofa beruvchi til tizimi unsuri sifatida qaraydi. Fonetika bo'limi quyidagilarni o'rganadi:

- a) Og'zaki nutqning tovushlar tizimi;
- b) Tovushlarizimining tuzilishi;
- c) Nutq apparati va nutq a'zolari;
- d) Bo'g'in va uning turlari;
- e) Urg'u va uning turlari;

f) Ohang (intonatsiya)

Fonetikani o'rganish imlo (orfografiya), to'g'ri talaffuz (orfoepiya) me'yorlarini yaxshi o'zlashtirib olishda, adabiy va dialektal talaffuz farqlarini aniqlashda, logopediya va surdopedagogikada nutqiy nuqsonlar diagnostikasi va ularni bartaraf etishda katta ahamiyatga ega.

Fonetika tilning yana bir sathi bo'lmish fonologiya bilan chambarchas bog'liq. Zero, bu ikki sath bir-birini bevosita taqozo etuvchi hamda to'ldiruvchi bo'limlardir. Fonologiya (*gr. rhone* - tovush, *logos* – ta'limot) termini tilshunoslikda XIX asr oxirida nutq tovushlarining fiziologik-akustik (fizik) tomonidan funktsional (lingvistik) tomonini farqlash ehtiyoji bilan paydo bo'ldi. Fonologiya til tovush qurilishining struktur va funktsional qonuniyatlarini o'rganuvchi soha bo'lib, semiotik (ishoraviy) tizim sifatida nutqni akustik-artikulyatsion aspektda o'rganadigan fonetikadan farqlanadi. Fonetikaning birligi bevosita kuzatishda berilgan nutq tovushlari bo'lganligi kabi, fonologiyaning birligi so'zlovchilarning ana shu bevosita kuzatishda berilgan nutq tovushlari asosida yotgan tovush tipi haqidagi ijtimoiy tasavvurlaridir. Har bir fonema kishilar ongida umumiy farqlovchi xususiyatlari asosida vujudga kelgan maxsus «akustik portret» yoki «tovush obrazi» sifatida yashaydi. Bu farqlovchi belgilar tovushlarning artikulyatsion va akustik belgilari asosida vujudga keladi va barqarorlashadi.

Nutq fraza (jumla), takt, so'z, bo'g'in va tovushlardan tashkil topadi. Fraza ko'pincha gapga teng bo'lib, nutqning ikki pauza orasidagi intonatsion butunligidir. Fraza yoyiq va yig'iq bo'lishi mumkin. Fraza yoyiq bo'lsa taktlarga ajraladi, yig'iq bo'lsa taktga teng bo'lib qoladi.

So'z – nutqning alohida bir urg'u bilan aytiladigan bo'lagi. So'z takt ichida yoki o'zicha mustaqil keladi.

Bo'g'in – bir tovush yoki tovushlar qo'shilmasidan iborat bo'lib, bir nafas zarbi bilan aytiladigan so'zning bo'lagidir. Bo'g'in bir unidan iborat bo'lganda tovushga teng kelib qoladi.

Tovush – fonetik bo'linishning oxirgi nuqtasi bo'lib, boshqa bo'laklarga bo'linmaydi.

Fonologiya til tovush qurilishining struktur va funktsional qonuniyatlarini o'rganuvchi soha bo'lib, semiotik (ishoraviy) tizim sifatida nutqni akustik-artikulyatsion aspektda o'rganadigan fonetikadan farqlanadi. Fonetikaning birligi bevosita kuzatishda berilgan nutq tovushlari bo'lganligi kabi, fonologiyaning birligi so'zlovchilarning ana shu bevosita kuzatishda berilgan nutq tovushlari asosida yotgan tovush tipi haqidagi ijtimoiy tasavvurlaridir. Har bir fonema kishilar ongida umumiy farqlovchi xususiyatlari asosida vujudga kelgan maxsus «akustik portret» yoki «tovush obrazi» sifatida yashaydi. Bu farqlovchi belgilar tovushlarning artikulyatsion va akustik belgilari asosida vujudga keladi va barqarorlashadi.

Fonemaning uch tomoni farqlanadi: akustik (eshitish), fiziologik yoki artikulyatsion (aytilish va talaffuzi), sotsial (ma'no ajratish). Bular uchun uchinchisi tomoni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy fonologiya faqat shu jihatnigina e'tiborga oladi. Chunki, akustik va artikulyatsion-fiziologik jihatlar bevosita nutq bilan bog'liq. Boshqa lisoniy birliklar kabi fonemalar ham paradigmatic va sintagmatic munosabatlarda yashaydi. Bular *fonologik paradigmatica* va *fonologik sintagmatica* deyiladi [6,7].

O'zaro qarama-qarshi belgilarga ega bo'lgan, biroq umumiy, integral belgilari asosida birlashgan bir tipdagi fonemalar sirasi *fonologik paradigma*, fonemalarning o'zaro munosabatlari *fonologik paradigmatic munosabat* deyiladi.

Fonologik paradigmaning markazida fonologik ziddiyatlar turadi. Fonologik ziddiyat (oppozitsiya)lar fonemalarning farqli belgilarini ifodalaydi. Masalan, o'zbek tilidagi unli fonemalar bir umumiy belgi - «o'pkadan kelayotgan havoning tovush paychalariga urilish natijasida hosil bo'lgan ovoznig og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramay chiqishidan vujudga keladigan tovush tiplari» invariant xossasiga ega va u 6 ta unli fonema uchun ham amal qiladi. Biroq bu mohiyat ostida birlashgan fonemalar o'zaro zidlanib, kichik guruhlar hosil qiladi. [i] va [u] «yuqori tor» belgisi bilan «o'rta keng» xossasiga ega [e] va [o] hamda «quyi keng» xossasiga ega [a] va [o] fonemalar guruhlariga qarama-qarshi turadi. Yoki «lablanmagan» belgisiga ega [i], [e], [a] fonemalari guruhi «lablangan» belgisiga ega [u], [o], [o] guruhiga qarama-qarshi turadi. O'z navbatida, [i], [e], [e] guruhi a'zolari o'ziga xos belgilari asosida o'zaro zidlanadi.

Tilshunoslikda fonologik ziddiyatlarning turli tip va ko'rinishlari farqlanadi. N.S.Trubetskoy «Fonologiya asoslari» asarida fonologik ziddiyatlarni uch asosga ko'ra tasniflaydi:

Fonologik ziddiyatning ziddiyat tizimiga munosabatiga ko'ra tasnifi. Bunda ziddiyatlar bir o'lchovli va ko'p o'lchovli, muntazam va ajralgan ziddiyatlarga bo'linadi. Bir o'lchovli ziddiyatda fonemalar bir belgi asosida zidlanadi. Masalan, [i] va [u] fonemalaridan biri lablanmagan va ikkinchisi lablangan bo'lib, bunda ular bir belgi - «lablangan»lik xossasiga ko'ra qarama-qarshi turadi. Ko'p o'lchovli ziddiyatda ziddiyat a'zolari birdan ortiq belgi asosida qarama-qarshi qo'yiladi: [i], [o] ziddiyatida [i] yopiq va lablanmagan bo'lsa, [o] yarim yopiq, lablangandir.

Muntazam ziddiyatda zidlanuvchi a'zolar o'zaro o'ziga xos belgilar asosida qarama-qarshi qo'yiladi: «[i]-tor [o]-keng» zidlanishi muntazam zidlanishdir. Bunda [i] fonemasi «tor» lik, [o] fonemasi «keng»lik belgisiga ega. «[i] (tor) [o] (tor emas)» zidlanishi esa muntazam emas. Chunki birinchi a'zoda ziddiyat belgisi aniq, ikkinchi a'zoda aniq emas. Agar ikkinchi a'zoning ziddiyatdagi belgisi «keng» bo'lganda edi, ziddiyatni muntazam ziddiyat deyish mumkin bo'lur edi.

Bir belgining bo'linishlari asosida zidlanish ajralgan zidlanish deyiladi. Quyidagi ikki zidlanishga diqqat qiling: Birinchi zidlanishda ziddiyat belgisi bo'lingan, ajralgan, ikkinchida esa bunday hol mavjud emas.

A'zolari o'rtasidagi munosabatga ko'ra ziddiyatlar tasnifi. Bunga ko'ra, privativ (noto'liq), gradual, (darajali), teng qiymatli ziddiyatlar ajratiladi. Birinchi tasnifda ziddiyat belgisi xarakteriga ko'ra ziddiyat turlari ajratilgan bo'lsa, ikkinchi tasnifda fonemalarning ziddiyat a'zolariga munosabatiga ko'ra tasnif amalga oshiriladi.

Barqarorlik darajasiga ko'ra zidlanishlar barqaror va barqaror bo'lmagan turlarga bo'linadi. Barqaror zidlanishda fonemalarning qanday nutqiy vaziyatda bo'lishidan qat'i nazar, ulardagi ziddiyat saqlanib qoladi. Masalan, til oldi unlisi til orqa undoshi bilan kelgan vaziyatda til orqa undoshi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda [a] unlisi bilan til orqa [u] unlisi orasidagi ziddiyat kuchsizlanadi.

Barqaror bo'lmagan ziddiyatning neytrallashtirmagan holatini ta'minlovchi fonetik pozitsiya kuchli pozitsiya deyiladi. Masalan, [b] fonemasi so'z boshida jarangsizlashmaydi va bu pozitsiyada uning [p] fonemasiga zidligi saqlanadi. Bu kuchli pozitsiyadir. Neytrallanish, so'nishga olib keluvchi pozitsiya kuchsiz pozitsiyadir. Demak, bunday pozitsiyadagi ziddiyat barqaror bo'lmagan ziddiyat deyiladi. Unli va undoshlar orasidagi qarama-qarshilik barqaror ziddiyatga misol bo'la oladi. Yoki undoshlarning paydo bo'lish o'rniga ko'ra, unilarning tor-kenglik xossalari ko'ra zidlanishi ham barqaror ziddiyatlardir. Lablanish belgisiga ko'ra [o'-e] tizimchasi ham barqaror ziddiyat asosiga qurilgan.

Demak, o'zbek tilining fonetik paradigmasi deganda har qaysisi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan barqaror bir umumiy belgi ostida birlashadigan fonetik unsurlardan tashkil topgan tizim tushuniladi. Bu butunlik yoki paradigma o'z ichida ayrim belgilari bilan umumiylikni tashkil etgan va shu umumiylik uchun asos bo'lgan belgilari bilan boshqa shunday umumiylikdan farq qiladigan kichik butunliklardan, ichki paradigmalardan-mikrosistemalardan tashkil topadi. Bu tizimchalar unli va undosh fonemalar paradigmalaridir. Bu kichik paradigmalar a'zolarining umumiy belgilari ularning shu tizimni tashkil etishini ta'minlasa, farqlovchi belgilari bu ichki paradigmanning yana kichik bo'laklarga bo'linib ketishiga olib keladi. Jarangli undoshlar paradigmasi, jarangsiz undoshlar paradigmasi kabi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T.: Sharq, 2010. – 176
2. Irisqulov M. T. Tilshunoslikka kirish. – T.: O'qituvchi, 1992. – 255 b.
3. Xodjayeva D.I. Position and Combination of Sounds in Speech. – Indonesia. International Journal of integrated Education. 2020. 50-54
4. Xodjayeva D.I. zamonaviy tilshunoslikda terminni ta'riflashning turli yondashuvlari. Fan va jamiyat jurnali.2020. №1. 57-59-betlar.
5. Khusenova M. U. Dictionary structure theory and stages of development. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. January, 2021-II. ISSN 2181-9750
6. Ruziyeva N. Face Concept in the category of politeness. European journal of Humanities and Educational Advancements. 20020. 1(4), 15-20